



"TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ" ASARIDA ILM VA TARBIYA TALQINI

Sarvinoz Axmadqulova

O'zbekiston Milliy universiteti 3-bosqich talabasi

E-mail: [akhmadkulovasarvinoz@gmail.com](mailto:akhmadkulovasarvinoz@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolamizda yetuk pedagog, jadid Abdulla Avloniyning tarbiya va ilmga oid qarashlari hamda yozuvchining fikr mulohazalari muhokama qilingan. Adibning yuqorida keltirilgan asari tarbiyaviy jihatdan talqin qilinib, asarda keltirilgan bilim, fan, ma'daniyatga oid tushunchalar keng yoritib berilgan. Ushbu maqola orqali Abdulla Avloniyning dunyoqarashi, erkin va teran fikrlari ochib berilgan hamda talqin qilingan.

**Kalit So`Zlar:** tarbiya, axloq kodeksi, ta'lim, ma'naviyat, emotsional ta'sirchanlik, ma'rifat, tafakkur

**Аннотация:** В данной статье обсуждаются взгляды Абдуллы Авлони, состоявшегося педагога, на образование и науку, а также мнения писателя. Вышеупомянутое произведение писателя трактуется с просветительской точки зрения, широко разъясняются понятия, относящиеся к науке, культуре и искусству, представленные в произведении. В этой статье раскрываются и интерпретируются мировоззрение Абдуллы Авлони, его свободные и глубокие мысли.

**Ключевые Слова:** образование, нравственный кодекс, духовность, эмоциональная чувствительность, просвещение, мышление.

**Annotation:** In this article, the views of Abdulla Avloni, an accomplished pedagogue, on education and science, as well as the writer's opinions are discussed. The above-mentioned work of the writer is interpreted from an educational point of view, and the concepts related to science, culture and art presented in the work are widely explained. Through this article, Abdulla Avloni's worldview, free and profound thoughts are revealed and interpreted.

**Key Words:** education, moral code, education, spirituality, emotional sensitivity, enlightenment, thinking

*Alhosiil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir.*

*Abdulla Avloniy*

Ma'lumki, Ilmni ma'naviyatdan, tarbiyani ma'rifatdan ayri talqin qilib bo'lmaydi. Ilm, ma'rifat va axloq ma'naviy kamolotning asosi, mustahkam tayanchidir. Millatning millat, xalqning xalq sifatida tarix sahnasida bo'y ko'rsatishi, avvalo, ilm-u urfon hosilasidir. O'zbek mumtoz adabiyotining ma'naviy asoslari Sharq xalqlarining o'tmish madaniyati, islom dini ta'limoti, xususan, Qur'oni karim va Hadisi sharifdan oziqlanadi. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari ham ana shunday mumtoz asarlar sirasiga



kiradi. Mashhur o'zbek ma'rifatparvari, shoiri, jamoat arbobi Abdulla Avloniy kelajak avlodlar qalbida tarbiya va ma'rifat chirog'ini yoqqan yetuk shaxs timsoli bo'la oladi. Adib asarlarida odamlar orasidagi o'zaro sadoqat, huramat va adolat tushunchalarini yuksak darajada aks ettiradi.

"Turkiy Guliston yoxud axloq" asarini mashhur pedagog, ma'rifatparvar adib va shoir Abdulla Avloniy tomonidan yaratilgan o'ziga xos axloq kodeksi desak, also xato bo'lmaydi. Mazkur asar maktablarda bolaning axloqi, keng va teran fikrlashi, tarbiyasi uchun o'quv qo'llanma sifatida o'qitilgani ayon. Yozuvchining quyidagi fikrlari ham bu ma'lumotlarni quvvatlaydi: "Men bu asarni nochizonamni birinchi maktablarimizning yuqori sinflarida ta'lim bermak ila barobar ulug' adabiyot muhiblari, axloq havaskorlarining anzori oliylariga taqdim qildim"<sup>1</sup>. Darhaqiqat, "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobi yosh avlod tarbiyasida nimayiki muhim bo'lsa, ularning barchasini to'la-to'kis qamrab olgan va ifoda etgan mufassil tarbiyanomadir. Asarda yozuvchi quruq bayonchilik, roviylik yo'lidan bormaydi, fikrning emotsional ta'sirchanligi, estetik zavq ruhini oshirish maqsadida Sharq xalqlari orasida mashhur bo'lgan afsona, rivoyat, hikoyat va hikmatli so'zlardan iqtiboslar keltirib, o'z qarashlarini dalillaydi. Jumladan, asar muallifi kopincha payg'ambarimiz (s.a.v) tomonidan aytilgan hadislarini misol keltiradi. Rasuli akram nabiiyyi muhtaram afandimiz: "Eng yomon kishilar ilmiga amal qilmaydurg'an kishilar"<sup>2</sup>, - demishlar. Ushbu hikmatli so'zni Avloniy shunday izohlaydi: "Agar tarbiya qiluvchi muallim o'zi olim bo'lub, amalsiz bo'lsa, buning ham shogirdlarning axloqiga zo'r ta'siri bo'latur"<sup>3</sup>.

"Turkiy Guliston yoxud axloq" asarining mazkur o'rinlarida asar badiiyatiga xos alohida belgilar bilan birga yozuvchi uslubining muhim qirralari ham ko'zga yaqqol tashlandi.

Ma'lumki, axloq, avvalo, insonlarni yaxshilikka undab, yomonlikdan tiyilishga o'rgatuvchi ma'naviy fazilatdir. Abdulla Avloniy axloqning mana shu kuchini yanada bo'rttirishga harakat qiladi va gozal axloq sohibi bo'lish haqiqat uchun kurashib yashash ekanini yozadi: "Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar ila bayon qiladurg'on kitobni axloq deyilur."<sup>4</sup>

Yozuvchi e'tirofga ko'ra, haqiqiy axloq egasi, ya'ni o'z aybini bilib, uni tuzatmoqqa harakat qilgan kishi chinakam bahodir va pahlavondir. Asar muallifi millatning barcha farzandlarida ana shu xislatni ko'rishni orzu qiladi. O'z fikrlarining isboti uchun hadisdan iqtibos keltiradi:

"Rasuli akam nabiiyyi muhtaram afandimiz go'zal bir hadisni keltiradi: "Mezon tarozisiga qo'yiladurg'on amallarning ichida yaxshi xulqdan og'irroqi yo'qdir. Mo'min banda yaxshi xulqi sababli kechasi uxlamasdan, kunduzi ro'za tutib ibodat qilgan kishilar darajasiga yetar"<sup>5</sup>.

<sup>1</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent "Ma'naviyat" 1998. – B. 33.

<sup>2</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent "Ma'naviyat" 1998. – B. 40.

<sup>3</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent "Ma'naviyat" 1998. – B. 40.

<sup>4</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent "Ma'naviyat" 1998. – B. 34.

<sup>5</sup> Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent "Ma'naviyat" 1998. – B. 40.



Avloniy fikr kishisi, teran tafakkur, keng fitrat va o'tkir zehn sohibidir. "Turkiy Guliston yoxud axloq" pandnomasidagi mulohazalar shunday deyishimiz uchun to'la asos beradi. Asarda farzand tarbiyasi, ta'limning tarbiya bilan bevosita bog'liqligi, ilm-fan insoni jaholat botqog'idan qutqaruvchi qudratli kuch ekani juda ishonchli yoritilgan. Asar muallifi hech bir masalada biryoqlamalikka berilmaydi, gap kelajak avlodning tarbiyasi xususida ketar ekan, yozuvchining gumanist – insonparvar qiyofasi kitobda bo'y ko'rsatib turaveradi. Jumladan, yetuk pedagogning yozishicha, kishining tarbiyasida noqisliklar, kemtikliklar kuzatilsa, hatto axloqi buzuq bo'lsa ham, u o'z xatolarini tuzatishga intilsa yoki kamchiliklarini tushunib yetsa, bunday odamni tarbiyalash mumkin. Har qanday komil axloq egalari, qalbi, ruhi va fikri sog'lom bo'lgan jamiyatning ilg'or kishilari yon-atrofidagilariga o'z fazilatlarini bilan o'rnak bo'lishlari lozim va ularning go'zal odobi boshqalarga ham namunadir. Masalan, bir daraxt mevasi yomon bo'lsa, ul daraxtga mehr berib, payvandlab, parvarish qilinsa, albatta, mevasi shirin bo'ladi. Xulq ham xuddi shunday: unga qancha amal qilsak, shuncha mukammallashib, nafosatli bo'lib boraveradi.

"Turkiy guliston yoxud axloq"da mana shu: mundarija – izoh va iqtibos yoki tamsil usuli asar oxirigacha davom etgan. Mundarijada fikr mavzusi yoritilsa, izohda axloq, ta'lim-tarbiya borasida keng va foydali qarashlar bayon qilinadi. Aytligan fikrlarning isboti biror hikmatli so'zni iqtibos sifatida keltirish yoki hayotiy lavhani misol tarzida ko'rsatish orqali jonli dalillanadi. Bu asarning o'qishligini ta'minlaydi, o'quvchining qiziqishini orttiradi va ta'sirchanlikni kuchaytiradi.

Ayonki, tarbiya tushunchasiz insoniyat hayoti va kishilik jamiyatini tasavvur qilib bo'lmaydi. Tarbiya, axloq va ta'lim tiriklikning muvozanatini ushlab turuvchi muhim tirgaklardir. Tarbiya yoshlikdan to'g'ri yo'lga qo'yilmasa, keyin uni o'zgartirib bo'lmaydi. Tarbiyasizlik nafaqat shaxsni tanazzulga boshlaydi, balki xalq, millat va vatan taraqqiyoti uchun ham yovdir. Go'yoki, bir hunarmand kulolchi tomonidan yasalgan ko'zaga qaytadan shakl berib bo'lmagani kabi, o'z vaqtida berilmagan tarbiyani ham kechiktirib boshlashdan ma'no yo'q. Abdulla Avloniy yozadiki, xususan, temirchining bolasi tarbiyali bo'lsa olim bo'ladi, ammo xulqi buzuq bo'lsa u Luqmoni hakim farzandi bo'lsa ham baribir zolim bo'lib qolaveradi. Bu o'rinda mazkur fikrlarini muallif payg'ambarimizning quyidagi hikmatlari bilan dalillaydi: "Bir tog'ning o'rnidan ko'chib ketganini eshitsangiz, ishoningiz, ammo bir odamning xulqi boshqa bo'ldi deb eshitsangiz, ishonmangiz"<sup>6</sup>.

Abdulla Avloniy ilmni axloqdan, ta'limni tarbiyadan, ma'rifatni go'zal xulqdan hech qachon ajratib talqin qilmaydi. Muallifning fikricha, "Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidir"<sup>7</sup>. Muallif aytayotgan ilmning mevasi ham, avvalo, tarbiya va ma'naviy yetuklik ekani ma'lum. Chunki, ilmli kishi har yerda hurmatga sazovor bo'ladi. U yuksak axloq sohibi ham bo'lsa, obro'-e'tibori yanada ulug' bo'ladi. Ilm olishga intilishni yozuvchi go'yo qorong'u g'ordan yog'du axtargan kishining holatiga qiyoslaydi. Bu intilishlar oxir-oqibatda insonni o'zi istagan yorug' manzillarga boshlaydi. Avloniyning yozishicha: Ilm insonni "Jaholat qorong'uligidan qutqarur"<sup>8</sup>.

<sup>6</sup>Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent "Ma'naviyat" 1998. – B. 35

<sup>7</sup>Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent "Ma'naviyat" 1998. – B. 48.

<sup>8</sup>Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent "Ma'naviyat" 1998. – B. 48.



Asar muallifi turli ilmlar. Fanlarni bir-biridan ayri qo'ymaydi, balki ularning har birini o'rganishga, sirlarini bilishga da'vat etadi. Chunonchi, diniy va dunyoviy ilmlar bir-birini inkor etmaydi, balki to'ldirib boradi. Har ikkisiga ega bo'lgan inson esa, haqiqiy komil, mukammal shaxs bo'lib yetishadi. Payg'ambarimiz ham: "Ilmga amal qiluvchilardan bo'lingiz, naql va rivoyat qiluvchilardan bo'lmangiz"<sup>9</sup>, - demishlar. Xususan, zehningizni, bilingizni foydali va xayrli ishlarga sarflab, o'z ilmingizga tayangan holda ish tuting. Bekor so'zlovchilardan, noo'rin hikoya qiluvchilardan bo'lmang, deb uqtiradi Abdulla Avloniy.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Avloniy tarbiyani juda keng ma'noda tushunadi. Shu sababli bolalarni aqliy rivojlantirish bilan birga, jismoniy sog'ligi xususida ham ko'p o'rinlarda to'xtalib o'tadi. Yurt ravnaqi, avvalo, uning farzandlariga, ularning ma'naviy va jismoniy kamolotiga bog'liqdir. Shu bois Abdulla Avloniy yoshlarni ilm, foydali hunar egallashga, kitob mutolaasiga undaydi. Shuningdek, adib ilmsizni jaholat bilan tenglashtirib, shunday fikrlarni bildiradi: "Jaholat deb o'qimagan, bilimsiz, hech narsaga tushunmaydurgan nodonlikni aytilur", - deydi. Shuni aytish joizki, ta'lim-tarbiya, axloq va ilmni bir-biriga bog'lab, ularni uzluksiz ravishda yonma-yon olib borish kerak. Tarbiya va ilm har birimizning mukammal shaxs sifatida gavdalanishimiz uchun kerak. Tarbiyali va mushohadali yoshlar vatan kelajagidir. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asari bizga ana shularni o'rgatadi.

---

<sup>9</sup>Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik, 2-jild. – Toshkent "Ma'naviyat" 1998. – B. 49.